

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TARIX” KAFEDRASI**

**“TASDIQLAYMAN”**

GulDU o'quv ishlari

boyicha prorektori

F.Sharipov

«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2018 y.

**ARXEOLOGIYA  
fani bo'yicha**

Ta'lif yo'naliishi: 5120300 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)

**ishchi o'quv dasturi**

Umumiy o'quv soati – 108

Shu jumladan:

Ma'ruza – 36

Amaliyot mashg'ulotlari – 36

Mustaqil ta'lif soati – 36

**GULISTON – 2018**

Fanning ishchi o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 5120300 - Tarix (jahon mamlakatlri bo'yicha) yo'nalishi uchun tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturi (2015 yil 2 fevral 32-sonli buyruq) va o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:** Qodirova L.B – GulDU “Tarix” kafedrasini  
o'qituvchisi \_\_\_\_\_ (imzo)

**Taqrizchi:** Nazarov O. GulDU “Tarix” kafedrasini o`qituvchisi,  
t.f.n. dotsent \_\_\_\_\_ (imzo)

Fanning ishchi o'quv dasturi “Tarix” kafedrasining \_\_\_\_\_ dagi  
— - sonli majlisida ko'rib chiqilib, fakultet Ilmiy-uslubiy Kengashida ko'rib  
chiqish uchun tavsiya qilindi.

Fanning ishchi o'quv dasturi “Ijtimoiy-iqtisodiy” fakulteti Ilmiy-uslubiy  
Kengashining \_\_\_\_\_ dagi “\_\_\_” - sonli majlisida tasdiqlandi.

**Kafedra mudiri:**

**S.Qudratov**

Fakultet Ilmiy-uslubiy  
Kengashi raisi:

dots. B.B.To'ychiboyev

## **1.KIRISH**

Ushbu dastur “Arxeologiya” fanining predmeti, maqsad va vazifalari, moddiy va ma’naviy madaniyat, ijtimoiy-iqtisodiy va g’oyaviy qarashlar, mamlakatimizning demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari, jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyasini chuqurlashtirish, xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini ilmiy va amaliy ahamiyatini hamda fanning rivojlanish qonuniyatları va tamoyillari, fanning tarkibi va tuzilishi, uni tashkil qilish va boshqarish, fanning tasnifi kabi masalalar ahamiyati ohib beriladi. Hamda, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko’rsatib o’tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizatsiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to’la bahramand bo’lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko’maklashish va dunyo miqyosida mavjud bo’lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o’rganadi.

**Arxeologiya fanidan ishchi dastur** davlat ta’lim standarti va fan dasturida belgilangan talabalar tomonidan egallanishi lozim bo’lgan bilim, ko’nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirishni, o’quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o’rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta’minlaydigan, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo’naltirilgan o’quv –uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta’lim resurslari, o’qitish texnologiyasi, baholash metodlari va mezonlarini o’z ichiga oladi.

### **1.1. Fanning maqsadi va vazifalari**

Arxeologiya fani jahon xalqlari va sivilizatsiyalarining tosh asrdan so’nggi o’rta asrlar davrigacha oid tarixini moddiy madaniyat qoldiqlari asosida yoritadi. Arxeologiya fani insoniyatning kelib chiqishi muammolarini oydinlashtiradi. Dunyoda, jumladan, yurtimizda kechgan tarixiy taraqqiyot va madaniy jarayonlar xususida bayon qiladi.

Fanning maqsadi arxeologiya fani to’g’risida talabalarda xolisona ilmiy dunyoqarashni, ko’nikma va malaka shakllantirishdir. Arxeologiya fanining vazifasi moddiy va ma’naviy madaniyat, ijtimoiy-iqtisodiy, etno-madaniy jarayonlar va g’oyaviy qarashlar masalalarini o’rgatishdan iborat.

### **1.2. Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar**

“Arxeologiya” o’quv fanini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

2. Arxeologiya fanining maqsad va vazifalari, moddiy va ma’naviy madaniyat, xo’jalik xususiyatlar, g’oyaviy qarashlar masalalari va ularning taraqqiyot bosqichlari, ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanishni ***bilishi*** kerak;
3. Talaba tarixiy ma’lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o’rganish, muzey ashyolari va internet ma’lumotlarni, arxeologik manbalarni mustaqil tadqiq qilish, o’rganish ***ko’nikmalariga ega bo’lishi*** kerak;

4. Muzey eksponatlari, arxeologik manbalar tavsiflari, ilmiy tadqiqot institutlari fondlari materiallaridan foydalanish ***malakalariga ega bo'lish*** kerak.

### **1.3. Fanning o'quv rejasidagi fanlar bilan bog'liqligi**

“Arxeologiya” fani umumkasbiy fan hisoblanib, 1 semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish, o'quv rejasida rejalshtirilgan “Ibtidoiy jamiyat tarixi”, O'zbekiston va Jahon tarixi fanlarining qadimgi davrlaridan ***yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi*** kerak.

### **1.4. Fanni o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish**

Fanni o'qitishda talabalarining bilimini reyting nazorati tizimini qo'llab aniqlashga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi. Talabalarning arxeologiya fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar, jadvallardan foydalaniladi. Talabalarga ushbu fanni o'qitishda kompyuter texnologiyasidan, Internet ma'lumotlaridan ma'ruza materiallari sifatida, amaliy mashg'ulotlarda, mustaqil ishlarni bajarishda foydalanish, hamda test savollari to'plamidan foydalanish tavsiya etiladi.

### **Fandan o'tiladigan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti**

T/r	Fanning bo'limi va mavzusi, ma'ruza mazmuni	Soatlар			
		Jami	Ma'ruza	Seminar	Mashg'ulot
1.	Kirish. Arxeologiya fanining maqsad va vazifalari	12	4	4	4
2.	Antropogen davri	6	2	2	2
3.	Paleolit davri	10	4	4	2
4.	Mezolit davri	10	4	4	2
5.	Neolit davri	10	4	4	2
	ON				
6.	Eneolit davri	6	2	2	2
7.	Bronza davri	10	4	4	2
8.	Temir davri	10	4	4	2
9.	Antik davr	10	4	4	2
10.	O'rta asrlar arxeologiyasi	6	2	2	2
11.	O'rta Sirdaryo havzasi arxeologiyasi	8	2	2	4
	ON	10			10
	YaN				
	<b>Jami</b>	<b>108</b>	<b>36</b>	<b>36</b>	<b>36</b>

## **2. O'quv materiallari mazmuni**

### **2.1. Ma'ruza mashg'ulotlari mazmuni**

#### **2.1.1. Arxeologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari (4 soat).**

Kursning predmeti va vazifalari. Arxeologiya fan sifatida. Arxeologiyaning ijtimoiy fanlar sohasida tutgan o'rni. Arxeologiyaning fan sifatida shakllanish va rivojlanish tarixi. Arxeologik manbalar va ularning madaniy-tarixiy jarayonlarni o'rganishdagi ahamiyati. Arxeologik tadqiqot usullari. Madaniy qatlam. Xronologiya va davrlashtirish. Arxeologiya fanining yordamchi tarmoqlari.

[A1; A2, A3; A4; A6; Q1; Q2; Q3; Q4]

#### **2.1.2. Antropogen davri. (2 soat).**

Kaynazoy erasi bosqichlari. Antropogen davrining umumiy ta'rifi. Odamzotning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Insoniyatning rivojlanish bosqichlari va arxeologik topilmalar. O'rta Osiyodagi antropogonez jarayoni. Antropogonezga doir muammolar.

[A1; A2. 20-23; A3.21-23; A4.99-134, A5; A6; A6; A7.6-9; 151-158; Q5; Q 21;]

#### **2.1.3. Paleolit davri. (4 soat)**

Paleolit davri va uning bosqichlari: olduvay, ashel, mustye va so'nggi paleolit. Insoniyat shakllangan hudud. Paleolit davri madaniyatları bosqichlari. Osiyo, Yevropa va Afrikaning paleolit davriga oid asosiy yodgorliklari tavsifi. O'rta Osiyoning paleolit davri tavsifi. Asosiy arxeologik yodgorliklari. Insoniyatning Amerika mintaqasiga tarqalishi. Paleolit davri moddiy madaniyati. Mehnat qurollari. Tosh qurollariga ishlov berish texnikasi. O'zlashtiruvchi xo'jalik xususiyatlari (ovchilik va termachilik) Ibtidoiy tasviriy san'at. G'oyaviy qarashlar. Sun'iy turar joylarning paydo bo'lishi.

[A1; A2.23-43; A3.23- 43; A4; A5; A6; A7.10- 34; Q.4; Q7; Q12, Q21].

#### **2.1.4. Mezolit davri. (4 soat).**

Mezolit davri tavsifi. Tabiiy o'zgarishlar va ekologiyaning o'rni. Yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirish. O'zlashtiruvchi xo'jalik shaklining rivojlanishi va uning ishlab chiqaruvchi xo'jalik shaklining shakllanishidagi ahamiyati. Moddiy madaniyat. Mikrolitlar. Mezolit davri lokal madaniyatlarining shakllanishi. Old Osiyoning mezolit davri xususiyatlari. Natufiy madaniyati. Shimoliy Hindistonning mezolit davri xususiyatlari. O'rta Osiyoning mezolit davri madaniyatları: Sharqiy Kaspiybo'yı, Qo'shilish, Obishir, Machay va boshqalar. Lokal madaniyatlarning xo'jalik va moddiy madaniyati. Tasviriy san'at. G'oyaviy qarashlar.

[A1; A2. 44-54; A3.44-50; Q.10; Q11; Q18].

#### **2.1.5. Neolit davri. (4 soat)**

Neolit davri tavsifi. Neolit inqilobi. Yevrosiyoning janubiy viloyatlarida ishlab chiqaruvchi xo'jalik shaklining qaror topishi. Yaqin Sharqda ilk dehqonchilik. Iyerixon madaniyati. Kichik Osiyo markazlari: Cheyyunu tepesi va Chatal Xyuyuk. Kulolchilikning paydo bo'lishi. Jarmo madaniyati va Zagros madaniy birligi. Misdan buyumlar tayyorlash. Tosh qurollar. O'rta Osiyoda ishlab chiqaruvchi xo'jalik shaklining paydo bo'lishi. Jebel va Jaytun madaniyatları. Ilk dehqonchilik manzilgohlari va qurilish. Tosh qurollar. Hunarmandchilik. Tasviriy

san'at, haykalchalar. O'rta Osiyoning neolit davri o'zlashtiruvchi xo'jalik shaklidagi madaniyatlari tavsifi (Kaltaminor va Hisor). Neolit davri ijtimoiy munosabatlari. Yevrosiyo dashtlaridagi neolit davri o'zlashtiruvchi xo'jalik shaklidagi qabilalar madaniyatlari tavsifi. Ixtisoslashgan ovchilik, termachilik va baliqchilik. Moddiy madaniyat. Shimoliy Belujistonda ilk dehqonchilik madaniyati (Mergar). Hind vodiysining qadimgi dehqonlar tomonidan o'zlashtirilishi. Xitoyning neolit davri Yanshao va Lyunshan madaniyatlari tavsifi.

[A2.55-75; A3.51-62; Q1.43-51; Q2.27-46; Q13; Q18]

### **2.1.6. Eneolit davri. (2 soat).**

Eneolit davri tavsifi. Dastlabki metall - misga ishlov berishning boshlanishi insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti burilishidagi omil sifatida. Mesopotamiyada shahar-davlatlarning shakllanishi. Eron eneolit davrida (Sialk va Suza kompleksi) Afg'oniston eneolit davrida (Mundigak). O'rta Osiyoning eneolit davri madaniyatlari (Anov-Nomozgoh, Sarazm). Manzilgohlar, qurilish va me'morchilik. Hunarmandchilik taraqqiyoti (kulolchilik va metall). Haykalchalar. Kavkazortining eneolit davri madaniyatlari Karpatoldi (Moldova, Rumiya va G'arbiy Ukraina) hududida Tripolye madaniyati va uning bosqichlari. Manzilgohlar va uy-joylar. Dehqonchilik va chorvachilik. Kulolchilik. Tosh quollar. Metallarga ishlov berishning rivojlanishi. Tasviriy san'at. G'oyaviy qarashlarning namoyon bo'lishi. Eneolit davri janubiy va shimoliy hududlari qabilalari madaniy-iqtisodiy taraqqiyotining notekisligi. Yevrosiyo dashtlarida Maykop, Drevneyam va Afanasyev madaniyatlari.

[A2.76-96; A3.63-72; A4.57-64; Q2.27-46; Q18].

### **2.1.7. Bronza davri. (4 soat).**

Bronza davri tavsifi. Bronza davri tarixiy-madaniy jarayonlari. Mesopotamiyada shahar davlatlar taraqqiyoti va ularning xususiyati. Kritdagi mil. av. III-II ming yilliklarga oid Minoy va Miken madaniyatlari. Eron bronza davrida. Asosiy arxeologik yodgorliklari (Sialka IV kompleksi Tepai Hisor, Shahri Soxta) va ularning tavsifi. O'rta Osiyoning bronza davri tarixiy-madaniy jarayonlari. O'rta Osiyoning bronza davri madaniy markazlari (Kopetdog' oldi, Murg'ob, Surxon va O'rta Zarafshon vohalari) protoshahar tipidagi manzilgohlari (Oltindepa, Sarazm, Janubiy Gonur, To'g'aloq, Sopollitepa, Jarqo'ton). Shimoliy Afg'onistonda Dashli madaniyati. Hindiston bronza davrida (Moxenjadaro va Xarappa madaniyatlari). Sho'rto'g'ay. Ixtisoslashgan ishlab chiqarish. Tasviriy san'at. Yozuv yodgorliklari. Yevrosiyo dashtlarida Kotakomba, Yog'ochband, Andronova va Karasuk madaniyatlari. Bronza davrida Uralbo'yи hududlarida sivilizatsiyaning shakllanishi Arkaim manzilgohi va Sintashta mozori. Xo'jalik va moddiy madaniyat. Metallarga ishlov berish taraqqiyoti. Ijtimoiy tabaqalanish va davlatchilik masalalari.

[A3.96-138; A4.73-106; Q1.51-57; Q2.47-88; Q15; Q16; Q18].

### **2.1.8. Temir davri (4 soat).**

Ilk temir davri tarixiy-madaniy jarayonlari. Etno-madaniy migratsiyalar. Eron, Kavkazorti va O'rta Osiyo hududlarida qadimgi davlatlarning shakllanishi. Shaharlar. O'rta Osiyoning temir davri tavsifi O'troq dehqonchilik markazlari va ularning xususiyatlari. Qadimgi shahar shaklidagi manzilgohlar (Yozdepa,

Afrosiyob, Ko'ktepa, Uzunqir, Yerqo'rg'on, Qiziltepa, Dalvarzintepa, Ko'zaliqir, Gyaurqal'a va boshqalar) Qurilish va me'morchilik. Mil. av. I ming yillikning birinchi yarmiga oid skiflar madaniyati. Kamensk shahar xarobasi. Qozog'istonda Tosmoli madaniyati. Orolbo'yi saklarining moddiy madaniyati.

[A3.139-189; A4.107-139; A5; Q2.89-46; Q6; Q14; Q18; Q20, Q22].

### **2.1.9. Antik davri (4 soat)**

Antik davri ijtimoiy-siyosiy munosabatlari. O'rta Osiyoning antik davri davlatlari. Madaniy-tarixiy viloyatlarning yirik shahar markazlari. Dalvarzintepa, Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Gyaurqal'a, Niso, Tuproqqal'a, Qozoqliyotgan, va boshqalar). Sirdaryo havzasi o'troq dehqonlari va chorvador qabilalari, Kanka va O'tror. Sharq ellinizmi va shaharsozlik, me'morchilik va moddiy madaniyatda namoyon bo'lishi. Chirikrabot va Babushmulla madaniylari. Antik davrida Farg'ona. Qurilish va me'morchilik. Ixtisoslashgan ishlab chiqarish (kulolchilik, metallar ishlab chiqarishi, to'qimachilik, zargarlik). San'at (haykaltaroshlik, haykalchalar va rang-tasvir). Torevtika. Antik davri madaniyati ahamiyati.

[A3.139-189; A4.107-139; A5; Q2.89-46; Q6; Q14; Q18; Q20, Q22].

### **2.1.10. O'rta asrlar arxeologiyasi. (2 soat)**

Ilk o'rta asrlar davri ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari. Yer egaligi munosabatlarining qaror topishi. Yirik feodal davlatlari (Hazar va Turk hoqonliklari) O'rta Osiyo ilk o'rta asrlar davrida. O'rta Osiyoda davlatlarning qaror topishi. Dehqonchilik markazlari. Yirik shaharlar (Marv, Buxoro, Samarqand, Panjikent, va boshqalar) va manzilgohlar. Qurilish va me'morchilik. Hunarmandchilik turlari. (kulolchilik, metallarga ishlov berish, to'qimachilik, zargarlik). Haykaltaroshlik, haykalchalar va rang-tasvir. Rivojlangan va so'nggi o'rta asrlar moddiy madaniyati xususiyatlari Qadimgi va o'rta asrlar davri tarixini o'rganishda arxeologiya fanining ahamiyati.

[A2.189-227; A4.140-208; Q17; Q19; Q20; Q22].

### **2.1.11. O'rta Sirdaryo havzasi arxeologiyasi. (2 soat)**

O'rta Sirdaryo havzasida tosh va bronza davri yodgorliklari. Antik davr va ilk o'rta asrlarda Ustrushona yodgorliklari. Rivojlangan o'rta asrlar yodgorliklari. O'lkamiz arxeologiyasining rivojlanish tarixi.

[Q8; Q9].

## **2.2. Amaliy mashg'ulotlar mazmuni**

### **2.2.1. Arxeologiya - qadimshunoslik fani. (4 soat).**

Arxeologiya fanining maqsadi va uning oldidagi vazifalar. Manbalar, yodgorliklar, arxeologik madaniyat. Arxeologik davrlashtirish va xronologiya. Arxeologiya fanining rivojlanish tarixi. Arxeologiya va etnografiya. Arxeologiyada tabiiy fanlarning o'rni.

[A2. 5-19; A3.3-20, 268-285; A4.5-8, 14-16; A7.3-6; Q1; Q2; Q3; Q4]

### **2.2.2. Antropogen davri. (2 soat)**

Kaynazoy erasi bosqichlari. Antropogen davrning geneologik ta'rifi. Odamzotning paydo bo'lishi va rivojlanishi.

[A1; A2.20-23; A3.21-23; A4.99-134, A5; A6; A7.6-9; 151-158; Q5; Q 21;]

### **2.2.3. Paleolit davri arxeologiyasi. (2 soat).**

Paleolit davrining bosqichlari va xronologiyasi. Paleolit davrining o'rganilish tarixi. Paleolit davrining asosiy yodgorliklari. Paleolit davri qurollari. Paleolit davridagi xo'jalik xususiyati va shakllari.

[A1; A2.23-43; A3.23- 43; A4; A5; A6; A7.10- 34; Q.4; Q7; Q12, Q21].

#### **2.2.4. O'rta Osiyo paleolit davrida. (2 soat).**

O'rta Osiyo hududidagi ilk va o'rta paleolit davri yodgorliklari. So'nggi paleolit davri madaniyatlari va ularning turlari (Qorakamar, Xo'jag'or, Samarqand va Ko'lbulloq). O'rta Osiyo paleolit davri xo'jalik xususiyati va shakllari. Paleolit davri hayvonot va o'simlik olami.

[A1; A2.23-43; A3.23- 43; A4; A5; A6; Q.4; Q7; Q12, Q21].

#### **2.2.5. Mezolit davri. (4 soat).**

Mezolit davrini xarakterlovchi asosiy omillar. Mezolit davrining o'rganilish darajasi, xronologiyasi va davrlashtirilishi. Mezolit davrining asosiy yodgorliklari. Mezolit davri san'ati. O'rta Osiyo mezolit davri yodgorliklarining xususiyatlari. O'rta Osiyo mezolitining xo'jalik xususiyatlari.

[A1.44-54; A2.44-50; A7.34-41; Q.10; Q11; Q18].

#### **2.2.6. Neolit davri. (2 soat)**

Neolit davrining o'ziga xos xususiyatlari. Yangi iqtisodiyot shakllari taraqqiyoti. Neolit davrining moddiy va madaniy yodgorliklari.

[A1; A2. 55-75; A3.51-62; Q1.43-51; Q2.27-46; Q13; Q18]

#### **2.2.7. O'rta Osiyo neolit davrida. (2 soat).**

O'rta Osiyo neolit davri xususiyatlari. Joytun madaniyatining tarqalishi. Kaltaminor madaniyati va Xisor madaniyati. Qoyatosh rasmlari yodgorliklari.

[A1.55-75; A2.51-62; A7.41-57; Q1.43-51; Q2.27-46; Q13; Q18]

#### **2.2.8. Eneolit davri. (2 soat).**

Eneolit davri xronologiyasi va tavsifi. Metallga ishlov berishning kashf etilishi, mis qurollarning paydo bo'lishi. Xo'jalik va ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar. Eneolit davrining moddiy va madaniy yodgorliklari. O'rta Osiyo eneolit davri yodgorliklarining o'rganilish darajasi. Eneolit madaniyatining rivojlanish bosqichlari.

[A1.76-96; A2.63-72; A7.57-64; Q2.27-46; Q18].

#### **2.2.9. Bronza davri. (2 soat).**

Bronza davrining umumiy tafsifi. Qadimgi sivilizatsiyalarning shakllanishi. Alovida qabilalar va madaniyatlar o'rtasida aloqalarning kengayishi. Bronza davrining asosiy yodgorliklari.

[A1.96-138; A2.73-106; A7.64- 74; Q1.51-57; Q2.47-88; Q15; Q16; Q18].

#### **2.2.10. O'rta Osiyo bronza davrida. (2 soat).**

O'rta Osyoning turli hududlarida tarixiy taraqqiyotning borishi. Asosiy yodgorliklar. Dasht qabilalarining O'rta Osiyo janubiy vohalariga siljishi masalalari. O'troq dehqonchilik, yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi chorvador qabilalarning tarqalishi.

[A1.96-138; A2.73-106; A7.64- 74; Q1.51-57; Q2.47-88; Q15; Q16; Q18].

#### **2.2.11. Temir davri arxeologiyasi. (2 soat).**

Temir davrining umumiy tafsifi. Moddiy madaniyatdagi o'zgarishlar. Temir davriga mansub arxeologik yodgorliklar.

[A1.139-189; A2.107-139; A7.74-81; A9; Q2.89-46; Q6; Q14; Q18; Q20, Q22].

### **2.2.12. O’rta Osiyo temir davrida. (2 soat).**

O’troq dehqonchilik madaniyati tarqalgan hududlar. O’rta Osiyoning shimoliy viloyatlarida jamiyat taraqqiyotining o’ziga xosligi. Manzilgohlar, arxitektura, san’at. O’rta Osiyoda temir davri madaniyatining paydo bo’lishi muammolari.

[A1.139-189; A2.107-139; A7.74-81; A9; Q2.89-46; Q6; Q14; Q18; Q20, Q22].

### **2.2.13. Antik davr arxeologiyasi (4 soat)**

Antik davr arxeologik yodgorliklarida ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning aks etishi. O’rta Osiyo madaniy-tarixiy viloyatlarining antik davr yodgorliklari. Sharq ellinizmining shaharsozlik, me’morchilik va moddiy madaniyatda namoyon bo’lishi. Antik davri madaniyati ahamiyati.

[A1.189-227; A5.140-208; Q17; Q19; Q20; Q22].

### **2.2.14. O’rta asrlar arxeologiyasi. (2 soat).**

Ilk o’rta asrlar davri ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari. O’rta asrlar davri shaharsozligi. O’rta asrlar davri tarixini o’rganishda arxeologiya fanining ahamiyati. O’rta Osiyo o’rta asrlar davrida

[A1.189-227; A5.140-208; Q17; Q19; Q20; Q22].

### **2.2.15. O’rta Sirdaryo havzasasi arxeologiyasi. (2 soat)**

O’rta Sirdaryo havzasida tosh va bronza davri yodgorliklari. Antik davr yodgorliklari.O’rta asrlarga oid Ustrushona yodgorliklari.

[Q8; Q9].

### **3. Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talabalarning ma’ruza, seminar mashg’ulotlariga tayyorlanib kelishi va o’tilgan materiallarni mustaqil o’zlashtirishlari uchun kafedra o’qituvchilari tomonidan ma’ruza matnlari ishlab chiqilgan, har bir talabaga ushbu materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabaning fanni mustaqil tarzda qanday o’zlashtiriganligi joriy, oraliq va yakuniy nazoratda o’z aksini topadi. Shu sababli reyting tizimida mustaqil ishlarga alohida ball ajratilmaydi, ular JN, ON va YaN lar tarkibiga kiritilgan.

Mustaqil ishlar uchun fan bo’yicha jami 36 soat ajratilgan.

Ushbu soatlar taxminan quyidagi tartibda taqsimланади:

- seminar mashg’ulotlariga tayyorgarlik ko’rish – 18 soat.
- kollokviumga tayyorgarlik ko’rish, mustaqil ish topshiriqlari bo’yicha hisobot tayyorlash – 12 soat.
- mustaqil o’rganish topshirilgan adabiyot bo’yicha esse tayyorlash – 6

Seminar mashg’ulotlarda nazariy bilimlar mavzuga oid muamolarni yechish orqali mustahkamlanadi. Arxeologiya fanini chuqur o’zlashtirish uchun talaba fanning har bir bo’limini mustaqil o’rganishi va berilgan topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlashi zarur.

Qoldirilgan darslarni topshirish uchun talaba dars materialini tayyorlab kelishi va o’qituvchining og’zaki suhbatidan o’tishi zarur. Qoldirilgan ON va YaN lar belgilangan tartib bo’yicha topshiriladi.

### **Talabalar mustaqil ta’limining mazmuni va hajmi**

(Ma’ruza va amaliy mashg’ulot)

Ishchi o’quv dasturining mustaqil ta’limga oid bo’lim va mavzulari	Mustaqil ta’limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarilish muddatla ri	Hajmi (soatda)
Arxeologik tadqiqotlar tarixidan	Arxeologiya sohasidagi eng muhim kashfiyotlar va tadqiqotlar tarixini o’rganish, zamonaviy tadqiqotlar haqida ma’lumot to’plash	1-hafta	1
O’rta Osiyo arxeologiyasining rivojlanish tarixi	O’rta Osiyoda arxeologik tadqiqotlarning boshlanishi. XX asrning 50 -70 yillarida O’rta Osiyoda olib borilgan statsionar tadqiqotlar. Mustaqillik yillaridan so’ng O’rta Osiyo arxeologiyasining taraqqiyoti.	2-hafta	1
Xorazm arxeologiyasi	Xorazm arxeologiyasining rivojlanishi. Xorazmda ibtidoiy davr yodgorliklari. Xorazmning qadimgi shaharlari.	3-hafta	1
Ibtidoiy davr san’ati yodgorliklari	Yevropada topilgan ibtidoiy san’at namunalari. O’zbekistondagi qoyatosh rasmlarining namunalari. Ibtidoiy haykaltaroshlik.	4 –hafta	1
Old Osiyoda neolit	Old Osiyo neolitining o’ziga xos xususiyatlari. Chatal Guyuk yodgorliklari. Hojilar madaniyati.Xassun va Samara madaniyati.	5-hafta	1
Ibtidoiy davr mozor qo’rg’onlari	Ibtidoiy davr mozor-qo’rg’onlarining o’ziga xos xususiyatlari. Qadimiy chuqur, katakomba va yog’ochband davr mozor qo’rg’onlari.	6-hafta	1
Andronova madaniyatining o’ziga xos xususiyatlari	Yenisey havzasidagi chorvador qabilalar. Andronova madaniyatining g’arbgaga tarqalishi. Sirdaryo va Amudaryo quyi oqimlarida Andronova madaniyati namunalari.	7-hafta	1
Skif mozor qo’rg’onlari	Skif qabilalarining hayoti. Kuloba mozor qo’rg’oni. Soloha va Chertomlik qo’rg’onlari.	8-hafta	1
O’rta Osiyoning qadimgi shaharlari	Bronza davrida O’rta Osiyoda ilk shaharmonand madaniyatlarning rivojlanishi.	9-hafta	1

		Temir davrida shaharsozlik. Antik davr shaharsozligi.		
Kushonlar arxeologiyasi		O'rta Osiyoda Kushonlar davri. Ayrитом yodgorligi. Kushon davridagi budda yodgorliklari.	10-hafta	1
Qadimgi arxeologisi	Misr	Qadimgi Misr arxeologiyasining rivojlanishi. Qadimgi Misrning asosiy arxeologik yodgorliklari. Misr tarixini o'rganishda arxeologik topilmalarining o'rni.	11-hafta	1
Mezoamerikada arxeologik amaliyot		Amerikada qadimgi insoniyat izlari. Inklar madaniyati. Atsteklar madaniyati. Irokezlar	12-hafta	1
Jami				12

#### 4. Reyting baholash tizimi

##### 4.1. Reyting nazorati jadvali

Nazorat turi	Reyting baholashlar			Jami	Saralash bali
	1	2	3		
JN ( 40 %) shu jumladan	10	14	16	40	
ON (30 %)	-	14	16	30	
YaN (30 %)	-	-	-	30	
Jami:	10	28	32	100	55

#### KUZGI SEMESTR

№			Sentyabr		Oktyabr		Noyabr		Dekabr		Yanvar		Jami									
			1	2-5	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18		
1	JN 40 %	Amaliyot		4		2	4	2	4	2	4	2	11	9-14	4	4	4	4	4	4	24	40
		Mustaqil ta'lif			4				4						4	4	4				16	
2	ON 30 %																			18	18	30
		Mustaqil ta'lif												12							12	
3	YaN – 30%																				30	30
	Jami			10				26						34			30				100	

Baho	5	4	3	2
Reyting	86-100	71-85	55-70	< 55
Fanni o'zlashtirish ko'rsatgichlari	83-96	68-82	53-67	<53

**Eslatma:** 1 semestrda o'qitiladigan "Arxeologiya" fanining o'quv hajmi 108 soatni tashkil etadi va fan koeffitsenti esa 1,08 bo'ladi. Fan bo'yicha o'zlashtirishni aniqlashda talaba to'plagan bali 1,08 ga ko'paytiriladi va butungacha yaxlitlab olinadi.

#### 4.2. JNni baholash mezonlari

Arxeologiya fani bo'yicha joriy baholash talabaning seminar mashg'ulotlardagi o'zlashtirishini aniqlash uchun qo'llaniladi. JN har bir seminar mashg'ulotlarida so'rov o'tkazish, savol va javob, mustaqil ishlar topshiriqlarini bajarish va himoya qilish kabi shakllarda amalga oshiriladi. Talabaga JN da butun ballar qo'yiladi.

#### Talabaning seminar mashg'ulotlarni o'zlashtirish darajasi quyidagi mezon asosida aniqlanadi

Baholash ko'rsat- kichi	Baholash mezonlari	reytin g bali
A'lo, 86-100%	Yetarli nazariy bilimga ega. Topshiriqlarni mustaqil echgan. Berilgan savollarga to'liq javob beradi. Savolning mohiyatiga to'liq tushunadi. Auditoriyada faol. O'quv tartib intizomiga to'liq rioya qiladi. Topshiriqlarni namunali rasmiylashtirgan.	4
Yaxshi, 71-85%	Yetarli nazariy bilimga ega. Topshiriqlarni echgan. Berilgan savollarga etarli javob beradi. Savolning mohiyatini tushunadi. O'quv tartib intizomiga to'liq rioya qiladi.	3
Qoniqarli, 55-70%	Topshiriqlarni echishga harakat qiladi. Berilgan savollarga javob berishga harakat qiladi. Savolning mohiyatini chala tushungan. O'quv tartib intizomiga rioya qiladi.	2
Qoniqarsiz 0- 54%	Talaba seminar mashg'ulot darsi mavzusiga nazariy tayyorlanib kelmasa, mavzu bo'yicha savollariga javob bera olmasa, darsga sust qatnashsa bilim darajasi qoniqarsiz baholanadi	1

#### 4.3. ONni baholash

Oraliq nazorat "Arxeologiya" fanining bir necha mavzularini qamrab olgan bo'limi bo'yicha, tegishli nazariy va seminar mashg'ulotlar o'tib bo'lingandan so'ng yozma ravishda amalga oshiriladi. Bundan maqsad talabalarning tegishli savollarni bilishi yoki muammolarni echish ko'nikmalari va malakalari aniqlanadi. O'quv yilining 1-semestrda 2-ta ON o'tkazish rejalashtirilgan bo'lib jami 30 balldan iborat. ON nazorat ishlari yozma ish va og'zaki usilda o'tkazilishi nazarda tutilgan, yozma ish va og'zakisovollar ishchi o'quv dastur asosida tayyorlanadi. ON ga ajratilgan balldan 55% dan past ball to'plagan talaba o'zlashtirmagan hisoblanadi. ON ni o'zlashtirmagan talabalarga qayta topshirish imkoniyati

beriladi. ON bo'yicha olinadigan nazoratlar kafedra mudiri rahbarligida tashkil etiladi va kafedrada o'quv yilining oxirigacha saqlanadi.

#### **4.4. YaNni baholash**

Yakuniy nazorat "Arxeologiya" fanining barcha mavzularini qamrab olgan bo'lib, nazariy va seminar mashg'ulotlar o'tib bo'lingandan so'ng yozma ravishda amalga oshiriladi. Bundan maqsad talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari, ya'ni bilim darajasi yoki muammolarni echish ko'nikmalari va malakalari aniqlanadi. YaN nazorat ishlari test usulida ham o'tkazilishi nazarda tutilgan, test Sovollari ishchi o'quv dasturi asosida tayyorlanadi. ON va JNlarga ajratilgan balldan 55% dan past ball to'plagan talaba o'zlashtirmagan hisoblanadi va YaNga kiritilmaydi. YaNni o'zlashtirmagan talabalarga qayta topshirish imkoniyati beriladi. YaN bo'yicha olinadigan yozma ish variantlari kafedra mudiri rahbarligida tuziladi va dekanatlarga topshiriladi.

#### **Test usulida YaN ni baholash mezonlari:**

YaN test va yozma ish shaklida o'tkaziladi va talabaning javoblari 30 ballik tizimda baholanadi. Bunda testga ajratilgan ball savollar soniga bo'linib, bir savolga qo'yiladigan ball topiladi (1 ball) uni to'g'ri javoblar soniga ko'paytirib talabaning YaN da to'plagan ballari aniqlanadi.

### **5. INFORMATSION-USLUBIY TA'MINOT**

#### **5.1. ASOSIY ADABIYOTLAR**

№	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, xajmi	Kutubxon ada mavjud nusxaci
1	Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya. –Toshkent; Fan va texnologiya, 2011.	El.nusxa
2	Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1990.	El.nusxa
3	Арциховский А.В. Археология асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1970.	El.nusxa
4	Авдусин Д.А. Основы археологии. – М.: Высшая школа, 1989.	6 El.nusxa
5	Мартынов А.И. Археология. – М.: Высшая школа, 2005.- 447 с.	
6	Лунина С.Б. Археология Средней Азии. Учебное пособие. Ташкент. 1986	
7	Борисковский П.И. Древнейшее прошлое человечества. – Л., 1979	
8	Борисковский П.И. Возникновения человеческого общества. Палеолит Африки.– Л., 1977.	5
9	Джуракулов М.Д. Аванесова Н.А. Историография эпохи бронзы Средней Азии. Учебное пособие. -Самарканд: Изд.СамГУ, 1983.	
10	Peter L. Drewett. Field Archaeology: An Introduction. USA	
11	Colin Renfrew (Author, University of Cambridge), Paul Bahn (Author). Archaeology. Theories, Methods, and Practice. UK, 2012	

## 5.2. QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

№	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, hajmi	Kutubxonada mavjud nusxasi
1.	Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т., 1959.	El.nusxa
2.	Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948	El.nusxa
3.	По древним дельтам Окса и Яксарта. –М.: Из-во восточной литературы, 1962	El. nusxa
4.	Г.Н.Матюшин. Археологический словарь. -М: Просвещение, 1996	El. nusxa
5.	Еленек Я. Большой иллюстрированный атлас первобытного человека М., 1982	
6.	Пидаев Ш.Р. Поселения Кушанского времени Северной Бактрии. – Т., 1986.	2
7.	Палеолит Кавказа и Северной Азии. – Л.: Наука, 1990.	1
8	Грицина А.А. Археологические памятники Сырдаринской области. – Т., 1992.	El.nusxa
9	Сетон Ллойд. Археология Месопотамии - М.; Наука, 1984	El.nusxa
10.	Ранов В.А. Древнейшие страницы истории человечества. – М., 1988.	2
11.	Исламов У.И. Обиширская культура. – Т., 1980.	
12	Исламов У.И. Культура каменного века Центральной Ферганы. – Т., 1986.	6
13	Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. – Т.: Фан, 1975.	El.nusxa
14	Асқаров А.А. Энг қадимги шаҳар. – Т., 2000.	El.nusxa
15	Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – Л.: Наука, 1973.	El.nusxa
16	Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. – М.,Л.: Наука, 1964	El.nusxa
17	Eshov B. Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. – Т., 2006	El.nusxa
18	Массон В.М. Первые цивилизации. –Л.: Наука, 1989	El.nusxa
19	Булатова В.А. Древняя Кува.- Т.: Фан, 1972	El.nusxa
20	Аннаев Т., Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. - Т., 1997.	

Kutubxona mudirasi imzosi va muhri

## 5.3. TAVSIYA QILINADIGAN QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR VA AXBOROT MANBALARI

№	Muallif, nomi, turi, yili, hajmi, saqlanish joyi, elektron adresi	
1.	Керам К. Боги, гробницы и учение. Роман археологии. - М.,1963, СПб,"КЕМ", 1994.	El. nusxa
2.	Ўзбекистон тарихи моддий маданият ва ёзма манбаларда. –Т.: Фан	El. nusxa
3.		
4.		
5.		

**Ishchi o'quv dasturga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida**

o'quv yili uchun ishchi o'quv dasturiga qu'yidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda:

#### O'zgartirish va qo'shimchalarni kirituvchilar:

(professor-o'qituvchining I.F.O.)

(imzosi)

Ishchi o'quv dasturga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar "Ijtimoiy-iqtisodiy" fakultet Ilmiy-uslubiy Kengashida muhokama etildi va ma'qullandi (— yil " " -dagi " " - sonli bayonnomma).

## Fakultet Ilmiy-uslubiy Kengashi raisi:

B.B.To'ychiboyev

